



SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA DARSLARNI MUAMMOLI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Shodmonova Ruxsora Shokirovna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot

universiteti tyutori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17320697>

ARTICLE INFO

Received: 1st October 2025

Accepted: 5th October 2025

Published: 10th October 2025

KEYWORDS

*maktab, texnologiya,
maktab o'quvchilari, baholash,
muammoli o'qitish metodlari,
bilimlarni baholash, pedagogika.*

ABSTRACT

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida
darslarni muammoli tashkil etish texnologiyalari
yoritilgan.*

Respublikamiz yetakchi olimlari tomonidan maktab ta'limini takomillashtirish, o'tilayotgan darslar sifatini yaxshilash, mazmunini boyitish hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga oid nazariy va amaliy ahamiyatga mansub bo'lgan ko'pgina ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, R.SH.Ahlidinov¹ tomonidan O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari, J.G'.Yo'ldoshev² tomonidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim taraqqiyoti, istiqboli va yangilanish masalalari, M.Mirqosimov tomonidan maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari, S.T.Turg'unov tomonidan maktabni boshqarishda pedagogikaning asosiy tushunchalari va tadqiqot metodlari, zamonaviy maktab rahbarlarining funksional vazifalari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini rivojlantirishda maktabni boshqarish funksiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu ishlar maktablar o'quv rejasiga kiritilgan informatika fanidan bilimlarni o'zlashtirish sifati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Ammo, respublikamizda va xorij mamlakatlardagi mavjud ilmiy-metodik maqola va adabiyotlarning tahlili, ta'lim tizimida informatika fanini to'laqonli zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida muammoli o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish bo'yicha yetarlicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borilmaganligidan dalolat beradi. Informatikani o'qitish - bu murakkab jarayon bo'lib, o'z ichiga avvalo o'qituvchi va o'quvchining uzluksiz faoliyatini oladi. O'qituvchi dars mobaynida qancha harakat qilmasin, agar o'quvchilar ham dars jarayonida faol ishtirok etmasalar, bilish jarayoni sust ketadi. O'qituvchi dars jarayonida o'qitayotgan fani bo'yicha, nafaqat ilmiy axborotlarni, yangi bilimlarni beradi, balki o'quv jarayonini rejalashtirib, boshqarib borish bilan birga dars mobaynida o'quvchilarning informatika fani bo'yicha bilimlarini o'zlashtirish sifatini oshirish jarayonini tekshiradi, nazorat qiladi va ularga mashg'ulot mobaynida mehnat qilish ko'nikmasini, farqlash qobiliyatini, olgan bilimlarini amalda qo'llashga ham o'rgatadi. Ta'lim berishda zamonaviy o'qitish texnologiyalarini amalda qo'llash

¹ Ahlidinov R.SH. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). – Toshkent: O'zPFITI, 1997. -B 25-26.

² Yo'ldoshev J.G'. O'zbekiston Respublikasi ta'lim taraqqiyoti yo'lida. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. -B 28-31

mexanizmini har bir o'qituvchi mukammal bilishlari lozim. Inkor qila olmaymizki, hozirgi kun o'quvchilari avvalgilardan o'z salohiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Masalan, zamonaviy o'qitish texnologiyasini dars jarayonida foydalanilishi uchun o'qituvchi: kommunikatsiya-axborotlarni qabul qilish va etkazib berish; o'quvchilarni ta'lim olishga motivatsiya-qiziqtirish; o'qitishni vizuallashtirish-ko'rgazmalilik tamoyili asosida boshqarish kabi mahoratlariga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy o'qitish texnologiya usullarini o'zida shakllantira olgan, ko'nikma hosil qilgan o'qituvchi, o'z ish faoliyatida, ya'ni dars berish jarayonida albatta, kompyuter, kodoskop, flipchart va pinbord o'quv xona taxtasi kabi texnik vositalardan foydalanish mahoratiga ega bo'ladi. Dars jarayonida ta'lim maqsadini amalga oshirish ya'ni, o'quvchilarga ta'lim mazmunini etkazib berishda qiziqish uyg'otish va vizuallashtirish usullari, didaktik materiallar, texnik vositalar majmuasidan foydalanish zarur [39, 89]. Turli o'qitish texnologiyalarining mohiyati va mazmunini tadqiq qilishga qaratilgan pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarda³ yetarlicha ko'p fikrlar yuritilgan. O'qitish texnologiyalarining mohiyati va mazmuni, shuningdek, informatikani o'qitishda tajriba-sinov sifatida foydalanilgan texnologiyalar orqali olingan natijalar asosida maktablar ta'lim jarayoniga qo'llanilishi mumkin bo'lgan va dars jarayonida qo'llaganda samara beradigan o'qitish texnologiyalari qatoriga ko'proq muammoli o'qitish, kompyuterli, loyihalash, evristik texnologiyalarini kiritish mumkinligi aniqlandi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida malakali mutaxassislarni iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, o'quvchilarning tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi, mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak. Shuning uchun ham tadqiqotchilar va ilg'or o'qituvchilar o'quvchilarda o'quv faoliyatiga ijodiy yondashishni rivojlantirish yo'llari, texnologiyalari va usullarini qidirib topmoqdalar. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ijobiy samara berayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri bu, muammoli o'qitishdir. Muammoli o'qitish maxsus ko'rinishdagi motivatsiya - muammoni yaratishga asoslangan. Muammoli darslarni tashkil etish texnologiyasining asosiy vazifasi -- o'quvchilarning informatikaga oid bilimlar tizimini va aqliy faoliyat usullarini samarali sifatli o'zlashtirishlariga yordam berish, ularda olgan bilimlarni kasbiy faoliyatlarida paydo bo'ladigan yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llay olish, informatikaga oid o'quv muammolarini yechish ko'nikmalarini hosil qilish, mustaqil bilim orttirish qobiliyatlarini singdirishdan iborat. Bu texnologiya o'quvchilar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga ega bo'lgandagina, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo'ladi. Informatika o'qituvchisi darsga tayyorlanar ekan, biror o'qitish texnologiyasini yoki ularning birikmasini tanlashi, darsning maqsadi, informatika o'quv materialining mazmuni, sinf xarakteri, uning tayyorlik darajasiga asoslanishi lozim. Informatika o'qituvchisi tomonidan qo'yilgan muammoni hal etish jarayonida o'quvchi ma'lumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni o'zlashtiradi va o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etadi. Muammoli darslarni tashkil etishning asosiy mohiyati va afzalligi shundaki, o'qituvchi o'qitish usullari (muammoli savollar qo'yish, gipotezalarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, o'quvchilarga yordam so'rab murojaat etish kabi) orqali ularni ijodiy fikrlashga va munozaraga chorlaydi. Informatikani o'qitishdagi muammoli metodlar - fandan muammoli vaziyatlar yaratishga, o'quvchilarning mazkur fandan bilimlarini o'zlashtirish sifatini oshirishni talab etadigan, murakkab masalalarni izlash va yechishga, tahlil qilishga, alohida faktlar ortida hodisa va qonunlarni ko'ra olishlariga asoslangan metodlardir.

³ Самойлова С.Л. Технология разработки теоретического урока модульного обучения // Профессиональное образование.-Москва, 2004.- №7.- С 31

Muammoli ta'lim texnologiyalarida muammoli vaziyat yaratish, savollarni to'g'ri qo'ya bilish va ularning yechimini guruh bilan birga va yakka holda izlash katta ahamiyat kasb etadi ⁴.

Ammo, muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash bo'yicha juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, informatika fanida muammoli o'qitish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha deyarli ilmiy izlanishlar olib borilmaganligini qayd etish mumkin. O'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy o'qitish texnologiyalarini imkoniyatlarini o'rganib, asosiy tadqiqotlarimizni informatika fanidan bilimlarni o'zlashtirishni muammoli darslarni tashkil etish texnologiyasi bo'yicha olib borishga qaratdik. Shuning uchun, keyingi paragrafning mazmunini bu fanni muammoli darslarni tashkil etish asosida o'qitish, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish vositasi ekanligiga qaratamiz.

Muammoli o'qitish texnologiyasi maktabda o'quvchilarning bilish faoliyatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Mazkur texnologiya ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, o'quvchilar tomonidan bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga imkon beradi. Bu texnologiya universal hisoblanadi, ya'ni har qanday fan darsida o'quv faoliyatini tashkil etish uchun to'g'ri keladi. Muammoli o'qitish texnologiyasining dolzarbligi o'quv faoliyatiga yuqori motivatsiya darajasini rivojlantirish, darsda muammoli vaziyatlarni yaratish hamda yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal etishda mumkin bo'lgan o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini faollashtirish bilan aniqlanadi. O'quvchilarda o'z kuchi yetadigan qiyinchiliklarni yengishida yangi bilimlarni, faoliyatning yangi usullarini, ko'nikma va malakalarni egallashida muntazam ehtiyoj yuzaga keladi. Muammoli o'qitish texnologiyasidan dars jarayonida foydalanish yaxshi natijalar beradi. Bunda o'qituvchi avvalo: muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi hamda xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchilar o'z bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risidagi takliflarini aytadi, oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi hamda muammoli vaziyatni echishning oqilona variantini tanlaydi. Bu ularning bilimga qiziqishlarini oshirish bilan birga, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Dars mavzusini mazkur texnologiya yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish, o'quvchini faolroq qilish kabilardan foydalanishni ko'zda tutadi. Bu texnologiya ko'proq ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llanadi, ularning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi hamda o'zini ilmiy-tadqiqot ishlariga bag'ishlaganlarga asqotadi. Muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash, amaliyotning ko'rsatishicha, faqat mazmunni o'zgartirish, texnologiyani o'zgarishsiz qoldirib, o'qitishning ijobiy natijalariga erishib bo'lmaydi. Ko'pchilik zamonaviy texnologiyalar ichida shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, muammoli, o'yinli, loyihalash, axborot-kommunikativ kabi texnologiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning ichida bugungi kunda eng samaralisi muammoli o'qitish texnologiyasi ekanligini ta'kidlab o'tdik.

O'quv muammosini yechish o'quvchilarning emotsional doirasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning individual va ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun maqbul sharoitni yaratadi. Bundan tashqari, muammolarni ko'ra olish, savollar berish, gipotezalarni ilgari surish, tushunchalarga aniqlik berish, kuzatish va tajribalar o'tkazish, xulosalar qilish, materialni

⁴ Raximov O.D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. /O'qituvchilar uchun qo'llanma. Qarshi, 2011y, -B 64

klassifikatsiyalash va tizimlashtirish, matn bilan ishlash, o'z g'oyalarini isbotlash va himoya qilish – mustaqil bilish faoliyati qobiliyati, tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish kabi ta'lim natijalariga erishiga olib keladi⁵. Muammoli o'qitish metodlarini darslarda, uning har qanday bosqichlarida muammoli vaziyatni yaratish bilan qo'llash mumkin. Misol, o'quvchi oldida qog'oz va ruchka turibdi. Savol beriladi: "Bitta raqamni boshqa raqamlar bilan yozish mumkinmi?". Topshiriq: "3 ta 5 bilan 2 ni yoz". Agar o'quvchi muammolarni yechish usulini topa olmasa, o'qituvchi yo'l ko'rsatadi, ya'ni mazkur raqamlar bilan arifmetik amallarni bajarish mumkin. Natijada o'quvchi bu muammoni yechishga o'tadi va yozadi: $2 = (5 + 5):5$. O'qitishda muammoli yondashuvdan foydalanish aniq natijalarga erishishga imkon beradi: muammoli o'qitish fikrlash faoliyatini faollashtiradi, fanlarni o'rganishga, bilishga qiziqishga ijobiy motivatsiya shakllanadi, o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samarali o'sadi hamda muammoli o'qitishning kommunikativ rejimi hamda o'z-o'zini o'qitish aqliy mehnat madaniyatini ratsional tashkil etish va tarbiyalashga imkon beradi. Shunday qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: mazkur texnologiya zamonaviy boshlang'ich ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'z ishini rejalashtirishga imkon beradi (o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodkorlik imkoniyatlarini aniqlash, jismoniy va psixik sog'ligini saqlash, yaxshi natijalarga erishish).

Maktab amaliyotida muammoli o'qitish texnologiyalari quyidagicha amalga oshiriladi (2.3-jadval):

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'ri - risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi qarori - 4860 13.10.2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategisi to'g'risida"gi PF 4947-sonli Farmoni.
4. PF-5712-сон 29.04.2019. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni.
6. PF-5847-сон 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
7. PQ-3955-сон 30.09.2018. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
8. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-son, 426-modda.
9. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. - Toshkent:

⁵ Avliyoqulov N.X. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" Toshkent.: 2001.

O'zbekiston NMIU, 2017. - 48 b.

10. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston" 2017. - 488 b.

